

ZUBTURUM TARKIBIDAGI ASKORBIN KISLOTASI KIMYOVIY ANALIZI

Ramazonov Akram Akmal o'g'li

BDTU 120-24 QX guruhi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15339978>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Katta zubturm (*Plantago major* L.) tarkibidagi foydali moddalar, shu jumladan askorbin kislotasi haqida umumiy ma'lumot, geografik tarqalishi, mahsulot tashqi ko'rinishi, kimyoviy tarkibi va analizi, qo'llaniladigan qismi hamda dorivor preparatlari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zi: Askorbin kislotasi, katta zubturm (*Plantago Major* L.) , Zubturmudoshlar- *Plantaginaceae* oilasi, plantoglutsid preparati, nastoyka, teri, kuydurgi, nafas yo'li, me'da-ichak,

Askorbin kislotasi (vitamin C) tibbiyotda juda katta ahamiyatga ega, chunki u organizmning ko'plab biologik jarayonlarida faol ishtirok etadi. Askorbin kislotasi kuchli antioksidant bo'lib, erkin radikallarni zararsizlantiradi. Bu xususiyati tufayli qarish jarayonini sekinlashtiradi, hujayralarni oksidlovchi stressdan himoya qiladi. Askorbin kislotasi kollagen hosil bo'lishi uchun zarur kofaktor bo'lib, terining sog'lomligi va yaralarning tez bitishiga yordam beradi. Immun hujayralar (leukotsitlar) faoliyatini kuchaytiradi. Virus va bakteriyalarga qarshi kurashish qobiliyatini oshiradi. Askorbin kislotasi ovqat tarkibidagi temirning (Fe^{2+}) organizmga yaxshi so'rilishiga yordam beradi. Ayniqsa, temir tanqisligi anemiyasini davolashda foydali. Kollagen sintezini rag'batlantirganligi sababli, askorbin kislotasi suyak to'qimalari va tishlar uchun muhimdir. Askorbin kislotasi qora smorodinada 300; Namatak (mevasida) va katta zupturni 300; Ukropda 135; Limonda 40; Karamda 30; Yangi kartoshkada 35; Ko'k piyoz 60 mg/100 g bo'ladi.

Katta zubturm (*Plantago Major* L.) Zubturmudoshlar- *Plantaginaceae* oilasiga mansub bo'lib, kalta va yog'on ildizpoyali, poyasiz ko'p yillik o't o'simlik. Yer ustki qismini ildizoldi barglari va 10-15 sm balandligdagi gul o'qi tashkil qiladi. Barglari uzun, qanotli bargli, keng tuxumsimon yoki keng ellipissimon, tekis qirrali, 3-9 ta yoysimon asosiy tomirli bo'ladi. Gul o'qi bitta yoki bir nechta. Mayda, ko'rimsiz, to'rt bo'lakli gullari o'qi ichidagi boshhoqsimon to'pgulga joylashgan. Mevasi-tuxumsimon, ko'p urug'li ko'sakcha. Zubturm iyun-sentabr oylarida gullaydi va mevasi yetiladi.

Kimyoviy tarkibi. O'simlikning yer ustki qismi tarkibida 0.1% efir moyi, shilliq moddalar, saponinlar, aukubin glikozidi, C vitamini (300mg% gacha) va K vitamini, 4.5-32.91 mg% karotin, flavonidlar (lyuteolin, apigenin, baykalalien va

ularning glikozidlari), organik kislotalar, oshlovchi va boshqalar) urug'ida 22%gacha yog', 44%gacha shilliq va boshqa biologok faol moddalar mavjud. Askorbin kislota — kristall modda; skorbutga qarshi vitamin. Hayvonlarning buyrak usti bezlari, gipofizi va jigarida, ignabargli daraxtlar yaproklarida, ayniqsa ho'l meva va sabzavotlarda ko'p. Bu vitamin issiqqa chidamsiz, yuqori temperaturada buziladi. Askorbin kislota organizmdagi oksidlanish va qaytarilish jarayonlarida qatnashadi. Uning ovqatda yetishmasligi qon tomirlarning shikastlanishi, qon oqishi bilan kechadigan lavsha (skorbut) kasalligiga sabab bo'ladi.

Katta zubturmning dorivorlik xususiyatlari. Katta zubturmning dorivor preparatlaridan (damlamasi, yangi yig'ib olingan bargi yoki yer ustki qismining konservatsiya qilingan shirasi, shirasidan tayyorlangan plantoglusit preparadi) meda-ichak kasalliklari (gastrit, enterid, enterokolid), yog'on ichakning yallig'lanishi, meda va o'n ikki barboq ichakning yara kasalligini davolashda foydalaniladi. Bundan tashqari, meda shirasining kislotaligini kamayib ketgan holda ham ishlatiladi. Bargi yoki yer ustki qismi shirasi bilan tuzalishi qiyin bo'lgan kolit kasalligi va yaralar davolanadi.

Zubturm bargi yo'talga qarshi ishlatiladigan yig'malar- choylar tarkibiga kiradi. Zubturm qadimdan xalq tabobatida turli kasalliklarni davolashda keng ishlatib kelingan o'simlik hisoblanadi. Uning bargi bilan Abu Ali ibn Sino o'z vaqtida qiyin bitadigan yaralarni, shishlarni (xavfli shishlarni ham), ko'z yallig'lanishi, jigar, buyrak va boshqa kasalliklarni davolagan hamda qon to'xtatish uchun ishlatgan. Jigar va buyrak kasalliklarini hamda qon tupurishda bemorga zubturm urug'ining qaynatmasini ichirgan.

Bargidan tayyorlangan damlamasi yoki quritilmagan barg shirasi xalq tabobatida nafas yo'llari, ko'z, teri, bezgak, yo'g'on ichak yallig'lanishi va turli yuqumli kasalliklarni hamda kuydirgini davolashda ishlatiladigan

Zubturm urug'idan tayyorlangan qaynatmasi yoki shakarga aralashtirib qovurilgan urug'i bilan yo'tal, isitma va boshqa kasalliklar davolanadi. Zubturmning yangi yig'ilgan bargini ezib teng miqdorda shakar aralashtiriladi va issiq joyda 3 hafta saqlanadi. So'ng shu aralashmadan ajralib chiqqan shiradan kuniga 3-4 choy qoshiqda o'pka va meda raki kasalligini davolash uchun bemorga ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.T.Berdiyev, E.T.Axmedov Tibbiy dorivor o'simliklar. Toshkent-2018
2. H.X.Xolmatov O'.A.Ahmedov Farmakognoziya. Toshkent-2021
3. Muhiddinovna B. Z. Functions and forms of chemical experiment //European science review. – 2020. – №. 1-2. – C. 48-50.

4. Бердиева З. М., Ниязов Л. Н. Use of information and communication technologies in teaching the subject of chemistry in higher education institutions //Ученый XXI века. – 2016. – №. 5-2 (18). – С. 26-29.
5. Бердиева З. М. Способы обучения учащихся решению химических задач //Достижения науки и образования. – 2020. – №. 6 (60). – С. 4-8.
6. Бердиева З. М. ЮҚОРИ ТАРКИБЛИ ТРАНС-РЕСВЕРАТРОЛ САҚЛАГАН ҚОРА ТУТ ТАБИЙ ХОМАШЁ СИФАТИДА //PEDAGOGS journali. – 2022. – Т. 22. – №. 2. – С. 8-12.
7. Бердиева З. М., Мирзаева Ш. У. Экстракция масла цветков джиды сверхкритической углекислотой //Интеграция современных научных исследований в развитие общества. – 2016. – С. 181-183.
8. Мухаммадиева З. Б., Бердиева З. М. Пищевая безопасность CO₂-экстрактов из растительного сырья //Universum: химия и биология. – 2020. – №. 4 (70). – С. 8-12.
9. Бердиева З. М., Жахонов Ж., Мирзаев А. АНАЛИЗ РАСТИТЕЛЬНОГО ПОЛИФЕНОЛА //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2023. – Т. 1. – №. 8. – С. 284-287.
10. Мухаммадиев Б. Т., Садикова М. И. Применение электромагнитного поля низкой частоты (эмп нч) в производстве растительных ингредиентов //Universum: химия и биология. – 2020. – №. 11-2 (77). – С. 34-36.